

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni muborak bo'lsin!

2023 8 Dekabr

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Sizlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 31 yilligi bilan chin yurakdan tabriklaydi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasi davlat tuzilishining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi, respublikaning har bir fuqarosining huquq va erkinliklarini kafolatlaydigan asosiy hujjatdir.

Bugun jamiyatimizdagi tinchlik-osoyishtalik, barqarorlik, totuvliklikning qadr-qimmatini, Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan mustahkam poydevor tufayli erishilgan O'zbekistonning iqtisodiyot, ta'lim, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish borasidagi yutuqlarini eslash uchun ajoyib fursatdir.

Har birimiz Konstitutsiyamiz tamoyillariga amal qilib, yanada adolatli, farovon va barkamol jamiyatga intilib, O'zbekiston taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shaylik.